



XALQ DEPUTATLARI PASTDARG'OM TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 18-iyun

VII-10-70-7-101-K/25

Pastdarg'om tumani

Pastdarg'om tumanini 2025-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dastur ijrosi yuzasidan tuman hokimi Sh.Raxmanovning hisoboti to'g'risida

2025-yilda Pastdarg'om tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yuqori va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, yashil tamoyil va yondashuvlarni keng joriy etish, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni amalga oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli Farmoniga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi VII-4-7-7-101-K/25 sonli qarori qabul qilingan.

Sanoatni rivojlantirish kichik dasturi ijrosi I chorak yakuni bo'yicha o'sish sur'ati – 104,6 foizga reja qilib belgilangan bo'lib, amalda 114,5 foizga o'sishi ta'minlangan. Sanoat kirib bormagan 14 ta mahallada kichik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish I chorak rejasi 2 ta mahallada ishga tushishi belgilangan bo'lib, reja to'liq 100 foizga bajarilgan.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish kichik dasturi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari I chorak yakuni bo'yicha o'sish sur'ati – 103,5 foizga reja qilib belgilangan bo'lib, amalda 103,6 foizga bajarilgan.

Qurilish pudrat ishlari I chorak yakuni bilan o'sishi 102,7 foiz etib belgilangan bo'lib, amalda 105,7 foizga o'sishi ta'minlangan. Jumladan, aholi xonadonlarini 1-chorak yakuni bilan ichimlik suvi tarmog'iga ulash 500 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 695 ta yoki 139 foizga bajarilgan. Elektr energetika obyektlarini I chorak yakuni bilan ta'mirlash 1,8 km etib belgilangan bo'lib, amalda 2 km yoki 111 foizga bajarilgan.

Xizmatlarni rivojlantirish kichik dasturi ijrosi bo'yicha I chorak yakuni bilan jami xizmatlar hajmi 648,0 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 110,3 foizni tashkil yetib, belgilangan prognoz 4,3 bandga yoki 5,8 mlrd. so'mga kam bajarilgan.

Pastdarg'om tumani hokimi Sh.Raxmanovning hisobotini eshitib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga ko'ra, xalq deputatlari Pastdarg'om tuman Kengashining o'ninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Pastdarg'om tumanini 2025-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dastur ijrosi yuzasidan tuman hokimi Sh.Raxmanovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo'limi (J.Pardayev), tuman hokimining o'rinbosari-investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi (A.Gafurov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (F.Sharipov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Bahramov), tuman Savdo-sanoat palatasi (Q.Siddiqov)ga tegishli tuman davlat tashkilot va korxonalar rahbarlari bilan birgalikda:

- 2025-yil davomida tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini hamda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish;

- tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida amalga oshirilishi belgilangan loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish choralari ko'rish;

- tumanda xizmatlar ko'rsatish va servis loyihalarini amalga oshirishda tadbirkorlarga ko'maklashish, kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, auksion orqali yer ajratish va boshqa yo'nalishlarda yuzaga keladigan muammolarni joyida bartaraf etish;

- aholiga tayyor biznes rejalar va loyihalar taqdim etish, ularni kasbga o'qitishdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi "kompleks xizmatlar" ko'rsatishni tashkil etish choralari ko'rish va ko'maklashish;

- xizmatlar sohasining rivojlanganligini baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini yanada kuchaytirish choralari ko'rish;

- tumanni, avvalambor, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda ortda qolayotgan tuman hududlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli amaliy ishlarni tashkillashtirish, tashabbuskor tadbirkorlarni aniqlash va ularning loyihalarini amalga oshirilishida ko'maklashish;

- xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir tuman hududlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmatlar turlarini kengaytirish, ayniqsa, qishloq joylarda transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qamrovini yanada kengaytirish;

- tuman hududiy dasturlarga tashabbuskor tadbirkorlarning g'oyalari asosida aholining ehtiyoji mavjud xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalarni kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i J.Pardayevga tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Bahramov) va tegishli mas'ullar bilan birgalikda:

- 2025-yil uchun byudjet daromadlariga belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarish hamda manbalar ustida monitoring olib borilishini nazoratga olish;

- tumanda oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlikni, shu jumladan hunarmandchilikni rivojlantirish hisobiga ish o'rinlari tashkil etish, shuningdek, norasmiy sektordagi yashirin ish o'rinlarini legallashtirish choralarini ko'rish;

- byudjet mablag'laridan samarali foydalanilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda erishilgan natijalar bo'yicha hisobotlarini tuman Kengashiga kiritilishini ta'minlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning aniq turlarini ularga biriktirib qo'yish orqali mahalliy byudjetning daromad bazasini tubdan mustahkamlash;

- deputatlik va jamoat nazoratini keng jalb qilgan holda, mahalliy byudjetni shakllantirishning shaffofligini va uning bajarilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- mahalliy byudjetga qo'shimcha soliq tushirish manbalarini qidirib topish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

- tuman hududining soliq bazasini kengaytirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlarni ko'rish;

- byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish topshirilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari - iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i J.Pardayevga tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (F.Sharipov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Bahramov) bilan birgalikda:

- tumanda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlar ijrosi yuzasidan yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlari ijrosini ortig'i bilan bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish;

- tumanda 2025-yil davomida aholi bandligini ta'minlash va doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining kunlik monitoring yuritishni tashkil qilish;

- tumanda investitsiya loyihalarini samaradorligini oshirish va rivojlantirish hamda yangi ochilayotgan korxonalarda yangi ish o'rinlariga birinchi navbatda ehtiyojmand oilalarning mehnatga layoqatli, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirib, ularning bandligini ta'minlash choralarini ko'rish;

- yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish hisobiga ish o'rinlarini tashkil etilishini ta'minlash choralarini ko'rish;

- tumanda mehnat yarmarkalarini o'tkazilishini sifat va natijadorlik jihatidan yuqori darajada tashkillashtirish va mehnat yarmarkalarining o'zida ishga joylashtirish orqali ularda ishtirok etayotgan ishsizlarni ish bilan ta'minlanishiga erishish choralarini ko'rish;

- mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, hokim yordamchilari hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollariga mahalla va tuman hududidagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlarni har oy yangilangan holda yetkazib borish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish topshirilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- o'zlari saylangan okruglarda tumanda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan belgilangan vazifalarni aholi orasida targ'ibot qilib borish hamda ijrosini deputatlik nazoratiga olish;

- joylarda uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimi yuzasidan davlat boshqaruvi organlariga amaliy yordam ko'rsatib borish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (I.Norbekov) va “Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi (B.Shukurov)ga Pastdarg‘om tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



RAXMANOV SHERZOD
SHUXRATOVICH